



\_\_\_\_\_ hokimligi  
*maktabgacha va maktab ta'limi*  
*boshqarmasi*

\_\_\_\_\_ *maktabgacha va*  
*maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi*  
\_\_\_\_-*umumiy o'rta ta'lim maktabi*  
*tarix fani o'qituvchisi*

\_\_\_\_\_ning

20\_\_-20\_\_-o'quv yili

9-sinflar uchun tarix fanidan

“YOSH TARIXCHI” NOMLI

**TO'GARAK**  
**HUJJATLARI**

**To'garak a'zolari haqida ma'lumot**

<b>№</b>	<b>Familiya ismi va sharifi</b>	<b>Tug'ilgan sanasi</b>	<b>Sinfi</b>	<b>Manzili (to'liq)</b>	<b>Ota-onasi (Ismi sharifi)</b>	<b>Telefon (uy yoki mobil)</b>	<b>Izoh</b>
<i>1.</i>							
<i>2.</i>							
<i>3.</i>							
<i>4.</i>							
<i>5.</i>							
<i>6.</i>							
<i>7.</i>							
<i>8.</i>							
<i>9.</i>							
<i>10.</i>							
<i>11.</i>							
<i>12.</i>							
<i>13.</i>							
<i>14.</i>							
<i>15.</i>							

16.							
17.							
18.							
19.							
20.							
21.							
22.							
23.							
24.							
25.							
26.							
27.							
28.							
29.							
30.							

*O'tkazilgan xona* \_\_\_\_\_





**20\_\_-20\_\_-o'quv yili uchun tuzilgan "Yosh tarixshi" to'garagining  
ISH REJASI**

<b>№</b>	<b>Yillik ish reja mavzulari</b>	<b>Soat</b>	<b>Sana</b>	<b>Izoh</b>
1.	XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyo davlatlarining hududi va aholisi.			
2.	XIX asr o'rtalarida o'zbek xonliklarining ma'muriy boshqaruv tizimi.			
3.	XIX asr o'rtalarida o'zbek xonliklarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti			
4.	XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyo xalqlarimadaniy hayoti.			
5.	Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoni bosib olish uchun istilochilik harakatlarining boshlanishi.			
6.	Toshkentning bosib olinishi.			
7.	Turkiston General-gubernatorligining tashkil etilishi.			
8.	Buxoro amirligiga qarshi harbiy harakatlarning boshlanishi			
9.	Buxoro amirligi ustidan Rossiya imperiyasi protektoratining o'rnatilishi			
10.	Xiva xonligi ustidan rossiya imperiyasi protektoratining o'rnatilishi			
11.	Qo'qon xonligini bosib olinishi			
12.	Turkiston general-gubernatorligining siyosiy-ma'muriy boshqaruv tizimi			
13.	Turkiston o'lkasida Rossiya imperiyasining yer-suv siyosati			
14.	Turkistonda sud tizimining tashkil etilishi			
15.	Turkistonda harbiy politsiya tartibotining o'rnatilishi			
16.	XIX Asrning ikkinchi yarmi - XX asrning boshlarida turkistonda ijtimoiy iqtisodiy ahvol			
17.	Turkistonda milliy-ozodlik harakatlarini boshlanishi va uning sabablari			
18.	Toshkentda "vabo" isyoni			
19.	Andijon qo'zg'oloni			
20.	Milliy-ozodlik harakatlarining ahamiyati			
21.	Soliq va majburiyatlar. xalq qo'zg'olonlari			
22.	Qoraqalpoqlar turkiston general-gubernatorligi			
23.	XIX Asrning ikkinchi yarmi - XX asrning boshlarida Qoraqalpoq madaniyati			
24.	Jadidchilik harakatining vujudga kelishi			
25.	Jadidchilik harakati namoyondalari va ularning faoliyati			
26.	Jadidchilik harakatining turkiston ijtimoiy -siyosiy va madaniy hayotiga ta'siri.			
27.	Birinchi jahon urushining boshlanishi va uning turkistonga ta'siri.			
28.	Turkistonda 1916 -yilgi qo'zg'olonlarning boshlanishi			
29.	Jizzax qo'zg'oloni			
30.	Turkistonda 1916 yilgi voqealarning ahamiyati va oqibatlari			

31.	Buxoro amirligining davlat tuzumi va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti			
32.	Yosh buxoroliklar faoliyati va buxoro amirligining tugatilishi			
33.	XIX Asr oxiri—XX asr boshlarida Xiva xonligining davlat tuzumi va ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli			
34.	Tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi.			

Sana: “ ” \_\_\_\_\_ 20\_\_-yil.Sinflar: \_\_\_\_\_.To‘garak rahbari: \_\_\_\_\_

**Mavzu: XIX asr o‘rtalarida O‘rta Osiyo davlatlarining hududi va aholisi.**

**Mashg‘ulotning maqsadi:**

**Ta‘limiy;** O‘quvchilarga XIX asrda O‘rta Osiyo davlatlarining hududi va aholisi haqida bilim berish.

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** Mustaqil siyosiy fikrlashga o‘rgatish.

**Mashg‘ulot turi:** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

**Mashg‘ulot metodi:** savol-javob, “Bingo”, guruhlarda ishlash.

**Mashg‘ulot jihozlari:** “O‘zbekiston tarixi” Mashg‘ulotligi, mavzuga oid xarita, Prezident I.

Karimovning “Yuksak ma’naviyat—yengilmas kuch” asari, kartochkalar.

**I-Tashkiliy qism:**

Salomlashish. Davomat. Dunyo yangiliklari.

**II-O‘tilganni so‘rash:** savol-javob.

1. Vatan tushunchasiga ta’rif bering?
2. 9-sinf “O‘zbekiston tarixi” Mashg‘ulotligi qaysi davrlarni o‘z ichiga oladi?
3. 8-sinfda nimalarni o‘rgangan edingiz?
4. “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asarida “tarixiy xotira xususida nima deya olasiz?”

**III-Yangi mavzu:**

XIX asrda O‘rta Osiyoda uchta mustaqil davlat mavjud bo‘lib, ular Buxoro amirligi, Qo‘qon va Xiva xonliklari bo‘lgan.

Buxoro amirligi hududi 200 ming kv.km, Xiva 130 ming. Kv.km bo‘lgan.

XIX ars o‘rtalariga kelib bu xonliklarda asosan o‘zbeklar yashagan, shu bilan birga tojiklar, qozoqlar, qopaqalpoqlar, turkmanlar istiqomat qilgan. Jumladan Buxoroda aholi 2 million bo‘lgan. Xiva xonligida 800 ming kishi, Qo‘qonda 3 million aholi yashagan.

Bu uch davlatda ham aholi dexqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug‘ullangan.

Qozoq, qoraqalpoq va turkmanlar ko‘chmanchi bo‘lib chorvachilik bilan shug‘ullanga.

Buxoroda 27 ta beklik va Xivada 40 ta beklik bo‘lgan.

Guruhlarda ishlash.

**1-guruh.** Buxoro amirligi hududi va aholisi.

**2-guruh.** Xiva xonligi hududi va aholisi.

**3-guruh.** Qo‘qon xonligi hududi va aholisi.

**VI-Mustahkamlash.** “Bingo”

1710	1756
O‘zbeklar	Buxoro amirligi
800	2 mln


1. Qo‘qon xonligi qachon tashkil topgan?
2. Buxoro amirligi qachon tashkil topgan?
3. Xonlikdagi aholining katta qismini kimlar tashkil qilgan?
4. Hududi jihatidan eng katta davlat?
5. Xiva xonligi aholisi qancha bo‘lgan.
6. Buxoro amirligi aholisi qancha?

**V-Baholash.**

Faol o‘quvchilar baholanadi.

**VI-Uyga vazifa:**

Mavzuni o‘qish, atamalarni o‘rganish, savollarga javob yozish, tezislar tuzish.





**Mavzu: XIX asr o‘rtalarida o‘zbek xonliklarining ma‘muriy boshqaruv tizimi.**

**Mashg‘ulotning maqsadi:**

**Ta‘limiy;** O‘quvchilarga XIX asrda o‘zbek xonliklarining ma‘muriy boshqaruv tizimi haqida bilim berish.

**Tarbiyaviy;** o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi;** Mustaqil siyosiy fikrlashga o‘rgatish.

**Mashg‘ulot turi;** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

**Mashg‘ulot metodi;** savol-javob, “Matn ustida ishlash”, guruhlarda ishlash.

**Mashg‘ulot jihozlari:** “O‘zbekiston tarixi” Mashg‘ulotligi,mavzuga oid xarita, vatman qog‘oz, marker, tarqatma materiallar.

**I-Tashkiliy qism:**

Salomlashish. Davomat. Dunyo yangiliklari.

**II-O‘tilganni so‘rash:** savol-javob.

1. Qo‘qon xonligi qachon tashkil topgan?
2. Buxoro amirligi qachon tashkil topgan?
3. Xonlikdagi aholining katta qismini kimlar tashkil qilgan?
4. Hududi jihatidan eng katta davlat?
5. Xiva xonligi aholisi qancha bo‘lgan.
6. Buxoro amirligi aholisi qancha?

**III-Yangi mavzu:** “Matn ustida ishlash usuli”.

Buxoro xonligi 1756-yildan boshlab *amirlik* deb atala boshlandi. XIX asrning o‘rtalarida Buxoro amirligining chegarasi Eron, Xiva xonligi va qozoq juzlari hududi bo‘ylab o‘tardi. Buxoro amirligining umumiy maydoni 200 ming kv. km dan ziyod edi. Amirlik markazi Samarqand, Buxoro, Panjikent, O‘ratepa, Qarshi, Turkiston o‘lkasi singari va yana boshqa yirik shaharlariga ega bo‘lgan Zarafshon vodiysi edi. 1826-yildan 1860-yilgacha Buxoro amirligini amir Nasrullo, 1860-yildan 1885-yilgacha amir Muzaffar boshqardi. Amir cheksiz hokimiyatga ega bo‘lib, uning qarorgohi Arkda joylashgan edi. Buxoro amirligi viloyat va tumanlardan tarkib topgan bo‘lib, ularga amir tomonidan tayinlanadigan *beklar* boshchilik qilardi. Poytaxt va poytaxt viloyatni *bosh qushbegi* boshqarardi. Davlatni *amir* boshqarardi, u o‘z faoliyatida ma‘muriy, moliyaviy va sud muassasalariga tayanardi. Markaziy hokimiyatni *devonbegi* boshqarardi, u davlatdagi xazina xarajatlari va soliq yig‘imi, shuningdek, moliyaviy ishlar hamda iqtisodiy rivojlanish uchun mas‘ul edi. Devonbegiga tashqi iqtisodiy aloqalar va amirlik tarixini yozish uchun mas‘ul bo‘lgan *mirzaboshi* bo‘ysunardi. *Qushbegi* oliy davlat amaldori, bosh vazir edi. Soliqni o‘z vaqtida yig‘ish va hisobga olish uchun *mushrif javobgar* bo‘lgan. Xalq arz-dod bilan *dodhoga* murojaat etgan. *Parvonachi* amirning farmonlarini e‘lon qilgan. Qonunlarga rioya etilishi hamda odil sudlov amalga oshirilishi uchun *shayxulislom* javobgar bo‘lgan. Unga *muftiy* va *muhtasiblar* bo‘ysunishgan. Muftiy *fatvo* tarzida diniy - huquqiy masalalarni izohlab bergan, muhtasiblar esa musulmonlar tomonidan shariat me‘yorlari va qonunlariga rioya etilishini kuzatishgan. Davlatda *qozikalon* bosh sudya, *raiskalon* esa shahar sudyasi bo‘lgan. Vaqf mulkini *sadr* boshqargan. Voyaga yetmagan valiahdnlarni tarbiyalash *otaliqqa* ishonib topshirilgan. *Mirshabboshi* shaharda tartib saqlash uchun mas‘ul amir soqchilari boshlig‘i hisoblangan. Uni, shuningdek, tungi soqchilar boshlig‘i deb ham atashgan. Amirning do‘stlari va dushmanlari to‘g‘risida ma‘lumot olish uchun javobgar bo‘lgan *ko‘kaldosh* davlat boshqaruvida katta mavqega ega edi. Oliy martabali ruhoniylar (ulamolar, sadrlar, sayidlar va xo‘jalar) aholi orasida yuksak obro‘ - e‘tiborga sazovor bo‘lganlar. Ayniqsa, Muhammad payg‘ambar qarindoshlarining avlodi - sayidlar, uning dastlabki to‘rt xalifasi avlodi hisoblangan xojalarning nufuzi yuqori bo‘lgan. Sadrlarning asosiy vazifasi vaqf mulkini boshqarishdan iborat bo‘lgan.

## XIX asr o‘rtalarida o‘zbek xonliklarining ma‘muriy boshqaruv tizimi



**1-guruh.**Buxoro amirligining davlat boshqaruvi.

**2-guruh.**Xiva xonligini davlat boshqaruvi.

**3-guruh.**Qo‘qon xonligini davlat boshqaruvi.

**Masalan.1-guruh.** Buxoro amirligida oliy hukumdor amir sanalgan.Amirlikni mang‘itlar sulolasi boshqargan. Markazi Buxoro shahri bo‘lgan. Bosh vazir-qo‘shbegi, devonbegi–moliya va xazina bilan shug‘ullangan,Mirzaboshi–hujjatlarni yuritgan,mushrif-soliqlar bilan, dodhoh-shikoyatlarni e‘shitgan,Parvonachi-xon farmonlarini o‘qigan,shayhulislom-sud ishlari, muftiy-diniy-huquqiy masalalarni, Sud boshlig‘i-qozikalon, sadr-vaqf ishlari bilan shug‘ullangan,Ko‘kaldosh-amirning dushmanlari haqida ma‘lumotlar to‘plagan.

**2-guruh.** Xiva xonligida davlat tepasida xon turgan.Davlat lavozimlari: devonbegi,qo‘shbegi, mehtar, otaliq, mirzaboshi, yasovulboshi, shayhulislom, mirobboshi, lashkarboshi.

**3-guruh.** Qo‘qon xonligida davlat tepasida xon turgan: Amirlashkar, mingboshi, mextar, qozikalon, muhtasib rais, mirshablar.

#### **IV-Mustahkamlash.**

1. Xiva xonligining poytaxti?
2. Qoqonda bosh vazir mingboshisi?
3. Buxoro amirligining yer maydoni?
4. Xonliklarda sud ishlari kimlarning qo‘lida bo‘lgan?
5. Buxoro amirligida mansablarni ayting?
6. Xiva xonligida davlat tepasida kim turgan?

#### **V-Baholash.**

Yuzaga kelgan savollarga javob berish. Faol o‘quvchilar baholanadi.

#### **VI-Uyga vazifa.**

Savollarga javob yozish, mavzuni o‘rganish.

*Maktab MMIBDO‘* \_\_\_\_\_ *Sana* \_\_\_\_\_ *20\_\_yil*

Sana: “ ” \_\_\_\_\_ 20 \_\_-yil. Sinflar: \_\_\_\_\_. To‘garak rahbari: \_\_\_\_\_

Mavzu: XIX asr o‘rtalarida o‘zbek xonliklarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.

Mashg‘ulotning maqsadi:

Ta’limiy; O‘quvchilarga XIX asrda o‘zbek xonliklarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida bilim berish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarni fidoiy farzandlar qilib tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: iqtisodiy bilimlarini oshirish.

Mashg‘ulot turi: yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

Mashg‘ulot metodi: savol-javob, “Klaster”, guruhlarda ishlash.

Mashg‘ulot jihozlari: “O‘zbekiston tarixi” Mashg‘ulotligi, mavzuga oid xarita, vatman qog‘oz, marker, tarqatma materiallar.

I-Tashkiliy qism:

Salomlashish. Davomat. Dunyo yangiliklari.

II-O‘tilganni so‘rash: savol-javob.

1. Xiva xonligining poytaxti?
2. Qo‘qonda bosh vazir mingboshisi?
3. Buxoro amirligining yer maydoni?
4. Xonliklarda sud ishlari kimlarning qo‘lida bo‘lgan?
5. Buxoro amirligida mansablarni ayting?
6. Xiva xonligida davlat tepasida kim turgan?
7. Buxoro xonligida ariza, shikoyatlarni qabul qiluvchi?
8. Otaliq bu...

III-Yangi mavzu: kichik ma’ruza.

XIX asr o‘rtalarida Buxoro amirligida yer egaligining uch shakli: davlat yerlari - *amlak*, xususiy yerlar - *mulk*, masjid va madrasalar yerlari - *vaqf yerlar* mavjud bo‘lgan. Barcha yerlarning oliy mulkdori amir hisoblangan. Amir yerning bir qismini dehqonlarga ijaraga bergan, buning uchun ular qishloq xo‘jalik mahsulotlaridan iborat bo‘lgan soliq turi *xiroj* to‘lashgan. Boshqa bir qism yer yirik amaldorlar, sarkardalar va amirning oila a‘zolariga *suyurg‘ol* qilib berilgan. Buning evaziga ular, zarur bo‘lganda, amirning jangovar yurishlarida qatnashganlar. Vaqf yerlar masjid, madrasalarga berilgan xayr-sadaqa va h.k. dan hosil bo‘lgan. Vaqfdan kelgan daromad *mutavalli* tomonidan taqsimlangan. Mulk yerlar, ya’ni xususiy yerlar erkin sotilishi yoki meros qilib o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan. Buxoro amirligi aholisi qishloq xo‘jalik mahsuloti va pul bilan soliq to‘lagan. Bu soliqlar shahar aholisidan yig‘ib olingan, shuningdek, aholi tomonidan suv solig‘i, tegirmondan foydalanganlik uchun, soliq yig‘uvchilar foydasi uchun va h.k. soliqlar to‘langan.

O‘rta Osiyo xonliklari agrar davlat bo‘lgan. Yerlarning asosiy qismi xon va uning qarindoshlari qo‘lida bo‘lgan.


O‘rta Osiyoda yer egaligining uch turi mavjud bo‘lgan. Aholi zimmasiga ko‘p turdagi soliqlar va majburiyatlar bo‘lgan.

O‘rta Osiyoda hunarmandchilik qadimdan rivojlanib u kop tarmoqli bo‘lgan.

Savdogarlar mahalliy mahsulotlarni chetga olib borib, u yerlardan zarur mollarni olib kelgan.



**Yangi mavzu:** “Klaster”



**IV-Mustahkamlsh.** Tezkor savollar.

- 1.XIX asr o‘rtalarida xonliklarda yer egaligining qanday turlari bo‘lgan?
2. Qanday soliq turlarini bilasiz?
- 3.Xonliklarda qanday majburiyatlar bo‘lgan?
4. Sug‘orish inshootlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
5. Xonliklarda hunarmandchilikning qanday turlari bo‘lgan?
6. Agrar bu ...

**V-Baholash.**

Yuzaga kelgan savollarga javob berish. Faol o‘quvchilar baholanadi.

**VI-Uyga vazifa.**

Savollarga javob yozish, mavzuni o‘rganish.

*Maktab MMIBDO‘* \_\_\_\_\_ *Sana* \_\_\_\_\_ *20* *\_\_yil*

Sana: “ ” \_\_\_\_\_ 20 \_\_-yil.Sinflar: \_\_\_\_\_.To‘garak rahbari: \_\_\_\_\_

**Mavzu: XIX asro‘rtalarida O‘rta Osiyo xalqlari madaniy hayoti.**

**Mashg‘ulotning maqsadi:**

**Ta‘limiy;** O‘quvchilarga XIX asrda o‘zbek xonliklarining madaniy hayoti haqida bilim berish.

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** moddiy merosimizni avaylashga o‘rgatish.

**Mashg‘ulot turi:** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

**Mashg‘ulot metodi:** savol-javob, “Klaster”, guruhlarda ishlash.

**Mashg‘ulot jihozlari:** “O‘zbekiston tarixi” Mashg‘ulotligi, allomalar, tarixiy-me‘moriy obidalarning rasmlari, tarqatma materiallar.

**I-Tashkiliy qism:**

Salomlashish. Davomat. Dunyo yangiliklari.

**II-O‘tilganni so‘rash:** savol-javob.


1. XIX asr o‘rtalarida xonliklarda yer egaligining qanday turlari bo‘lgan?
2. Qanday soliq turlarini bilasiz?
3. Xonliklarda qanday majburiyatlar bo‘lgan?
4. Sug‘orish inshootlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
5. Xonliklarda hunarmandchilikning qanday turlari bo‘lgan?

**III-Yangi mavzu:** kichik ma‘ruza.

Xonliklarda aholi o‘zbek tilida so‘zlashgan. Aholi o‘rtasida xalq og‘zaki ijodi rivojlangan. Qiziqchilar va askiyachilar folklorini rivojlantirishga katta xizmat qilgan. Bu davrda Ogahiy, Ahmad



Donish, Fazliy kabi olimlar ijod qilgan. Me‘morchilik rivojlangan:



**IV-Mustahkamlash.**

1. Toshkentda joylashgan masjid. (Tillashayx).
2. Baroqxon madrasasini ta'mirlash ishlarining boshlanishi. (1859).
3. Muhammad Aminxon madrasasi nechanchi yilda buntod etilgan?(1851-1855).
4. Muhammad Rahimxon madrasasi nechanchi yilda bunyod etilgan?(1871).
5. Sulton Murodbek va Hokim Oyim madrasalari qachon bunyod etilgan?(XIX asr 70-yillari).
6. Hazrati Kalon Sohibzoda madrasasi qachon bunyod etilgan?(1862).

**V-Baholash.**

Yuzaga kelgan savollarga javob berish. Faol o'quvchilar baholanadi.

**VI-Uyga vazifa.**

Savollarga javob yozish, mavzuni o'rganish.

*Maktab MMIBDO'* \_\_\_\_\_ *Sana* \_\_\_\_\_ *20\_\_yil*

Sana: “ ” \_\_\_\_\_ 20 \_\_\_-yil.Sinflar: \_\_\_\_\_.To‘garak rahbari: \_\_\_\_\_

**Mavzu: Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyoni bosib olish uchun istilochilik harakatlarining boshlanishi.**

**Mashg‘ulotning maqsadi:**

**Ta’limiy;** O‘quvchilarga Rossiya imperiyasi tomonidan O‘rta Osiyoni bosib olish uchun istilochilik harakatlarining boshlanishi haqida bilim berish.

**Tarbiyaviy;** o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi;** siyosiy fikrlashga o‘rgatish.

**Mashg‘ulot turi;** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

**Mashg‘ulot metodi;** savol-javob, guruhlarda ishlash.

**Mashg‘ulot jihozlari:** “O‘zbekiston tarixi” Mashg‘ulotligi, Dunyoning siyosiy xaritasi, vatman, marker, tarqatma materiallar.

**I-Tashkiliy qism:**

Salomlashish. Davomat. Dunyo yangiliklari.

**II-O‘tilganni so‘rash:** savol-javob.

1. Toshkentda joylashgan masjid. (Tillashayx).
2. Baroqxon madrasasini ta’mir qilish ishlarining boshlanishi. (1859).
3. Muhammad Aminxon madrasasi nechanchi yilda bunyod etilgan?(1851-1855).
4. Muhammad Rahimxon madrasasi nechanchi yilda bunyod etilgan?(1871).
5. Sulton Murodbek va Hokim Oyim madrasalari qachon bunyod etilgan?(XIX asr 70-yillari).
6. Hazrati Kalon Sohibzoda madrasasi qachon bunyod etilgan?(1862).

**III-Yangi mavzu:**

Podsho Rossiyasi o‘z chegaralarini sharqqa tomon kengaytirish, tabiiy boyliklarga, o‘zida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar uchun bozorga va arzon paxta xomashyosiga ega bo‘lish maqsadida O‘rta Osiyoni istilo qilgan. Bu istilochilik harakatlari to‘rt bosqichda olib borildi.

1)1847-65 yillar Qo‘qonning shimoli va Toshkent shahri egallandi .

2)1865-1868 yillar Qo‘qon xonligi va Buxoro istilo qilindi

3)1873-1879 yillar Xiva va Qo‘qon

4) 1880-1885 yillar turkmanlar bo‘ysundirildi.

1853-yil Oqmachit, 1864-yil Chimkent, 1865-yil Toshkent bosib olindi. 1865-yil Orenburg general-gubernatorligi tarkibida Turkiston viloyati tashkil qilindi. Unga M.Chernyayev harbiy gubernator etib tayinlandi.

Rossiyada XVII asrdan boshlab tovar-pul munosabatlari gurkirab rivojlandi. O‘rta Osiyo davlatlari bilan ham savdo-sotiq qilish zaruriati yuzaga keldi. Rossiya hukmdorlari o‘z elchilarini O‘rta Osiyo davlatlari xonlari huzuriga birin-ketin jo‘nata boshladilar. Pyotr I (1672-1725) hukmronlik qilgan davrdan boshlab, Rossiya imperiyasi harakatlarida bu davlatlarni kuch bilan bosib olish niyati borligi ko‘zga tashlanadi, chunonchi, Pyotr I *Bekovich-Cherkasskiy* boshchiligida O‘rta Osiyoga ekspeditsiya jo‘natadi. Bu ekspeditsiya muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Shundan so‘ng Pyotr I yangicha yo‘l tutdi. O‘rta Osiyoga qilinadigan keyingi yurishlar xavfsiz bo‘lishini ta’minlash uchun istehkomlar tizimini qurib, O‘rta Osiyo davlatlari chegarasi tomon asta-sekin siljib borish to‘g‘risida buyruq berdi. Shunday istehkomlardan dastlabki yettitasi 1718-yilda Irtish daryosi sohilida qurildi. Semipalatinsk shahri shu tariqa dunyoga keldi.



Rossiya imperiyasining keyingi hukmdorlari ham ushbu strategik rejani amalga oshirishni davom ettirdilar, chunki Rossiyada ip-gazlama sanoatl rivojlangani sayin O'rtasiyoning bozor sifatidagi ahamiyati orta bordi. Rus savdogarlari Xitoydan siqib chiqarilgani, shuningdek, Turkiya va Eronga Britaniya tovarlari kirib kelib, rus savdo-sotig'i cheklangani sari bu mintaqa ahamiyati orta bordi. O'rtasiyoda ingliz savdosi ortib borishi munosabati bilan Rossiya hukmdorlari o'z halovatini yo'qota boshladi. Ular Angliya O'rtasiyo hududini bosib olib, Kaspiy dengizi sohiliga chiqishidan xavotirda edilar. Buyuk Britaniya hukumati Rossiyaning Afg'oniston chegaralarida paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslikka harakat qildi.

Buyuk Britaniyaning Ost- Ind kompaniyasi XIX asrdan boshlab oltinga, paxtaga boy bo'lgan va muhim strategik ahamiyat kasb etgan O'rtasiyo bilan qiziqqa boshladi. U mahalliy hukmdorlarni Angliya bilan hamkorlik qilishga og'dirish hamda ayni mahalda ushbu davlatlarning siyosiy holatini o'rganishi lozim bo'lgan o'z ayg'oqchilarini bu yerga yubordi. Birinchi bunday "sayohat" 1824-yilda *M.Murkroft* tomonidan amalga oshirildi. U Buxoroga qadar yetib keldi, biroq qaytib ketayotganida ikki kuzatuvchisi bilan birga halok bo'ldi. 1832-yilda *A.Byorns* Buxoroda bo'ldi. 1843-yilda 33 yoshli kapitan *D.Ebbot* Xivaga keldi, shu yilning noyabrida mayor *D. Volf* Buxoroga jo'natildi. U 1838-yildan beri Nasrulloxon buyrug'i bilan zindonda yotgan polkovnik *Ch.Stoddart* va kapitan *A.Konnolini* ozod qilib, olib ketishi lozim edi. Ost-Ind kompaniyasi podsho qo'shinlariga qarshi kurashish uchun qo'shin yuborishni va'da qilib, O'rtasiyo davlatlariga Rossiyaga qarshi harbiy ittifoq tuzishni taklif etdi. Bunday taklif Stoddart va Konnoli tomonidan Buxoroda kiritildi, lekin bu missiya muvaffaqiyat keltirmadi. Stoddart va Konnoli 1842-yilda qatl qilindi, Volf esa Buxorodan arang qutulib ketdi. Bunga javoban Angliya Afg'oniston bilan sulh shartnomasini tuzib, uning amirini qurollantirdi, natijada Afg'oniston Buxoro amirligi hududining bir qismini bosib oldi. O'zbeklar va tojiklar yashab turgan bu hudud 1855-yildan boshlab Afg'oniston viloyatlariga aylandi. Ayni mahalda Rossiyaning O'rtasiyo xonliklari bilan savdosi jadal sur'atlarda kuchayib bordi. XIX asr o'rtalariga kelib Qo'qon, Xiva va Buxoro Rossiyaning savdodagi bosh hamkoriga aylanishdi. Natijada, XIX asrning II yarmida Rossiyaning O'rtasiyo davlatlari bilan doimiy savdo-iqtisodiy va siyosiy aloqalari o'rnatildi. Podsho Rossiyaning O'rtasiyoni mustamlaka qilib bosib olishi sabablaridan biri Amerikada shimol va janub o'rtasida boshlangan fuqarolar urushi (1861-1865) tufayli Amerika paxtasining Yevropaga keltirilishi to'xtaganligidir. Paxta yetishmasligi natijasidlr to'qimachilik sanoatida inqiroz boshlandi va yangi xomashyo manbalarini izlab topish zarurati yuzaga keldi. Rossiyaning Qrim urushidagi (1855-1857) mag'lubiyati Yevropadagi o'z o'rnini saqlab qolishi uchun Angliyaning Rossiyaga qarshi siyosatidan voz kechishga majbur etadigan "hujumkor qurol" zarurligini ko'rsatdi. Bunday "qurol" Hindiston bo'lib, u tomonga yo'l O'rtasiyo orqali o'tardi. Hind xalqining katta mashaqqatlar bilan bostirilgan 1857-yildagi Qo'zgo'loni inglizlarning Hindistondagi ahvoli omonatligini ko'rsatar edi. Bularning bari Rossiya imperiyasining O'rtasiyoga hujumini tezlashtirdi. Rossiya O'rtasiyoga bosib borish niyatidan voz kechmagan holda, savdo yo'llari xavfsizligini ta'minlashi ham zarur edi. Shu munosabat bilan asosiy savdo yo'llarida, birinchi navbatda Orenburgdan Toshkentga boradigan yo'lda harbiy istehkomlar qurildi. 1847-yilda Sirdaryoning quyilish joyida *Raim qal'asi* qurildi. Rossiyaning chegara hududlariga qurolli guruhlar talonchilik va tinch aholini asir olish maqsadida tez-tez hujum uyushtirayotgani jangovar harakatlarning boshlanishiga bahona bo'ldi. 1853-yilda Qo'qon xonligi Oqmachit qal'asini bosib olishga tayyorlana boshladi. Bu harakatlar Rossiyaning O'rtasiyo davlatlari hukmdorlari bilan munosabatlarini g'oyat keskinlashtirdi. Rossiya harbiy mahkamalarida ichki siyosiy ziddiyatlar bilan bir-biridan ajratib tashlangan Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklari jiddiy qarshilik ko'rsata olmaydilar, deb xato hisoblashgandi.

#### **IV-Mustahkamlash:**

1. Rossiya imperiyasining O'rtasiyo chegaralaridagi dastlabki istehkoni nechanchi yilda vujudga keldi? (1718-yil).
2. Verniy qal'asi hozirgi qaysi shaharda joylashgan edi? (Almati).
3. XIX asrda Toshkentning nechta darvozasi bo'lgan? (12ta).
4. Toshkentni mudofaa qilishda ishtiok etgan Qo'qon xonligi lashkarboshisi kim bo'lgan? (Alimqul)

#### **V-Baholash.**

Yuzaga kelgan savollarga javob berish. Faol o'quvchilar baholanadi.

#### **VI-Uyga vazifa.**

Savollarga javob yozish, mavzuni o'rganish.



*v**eb**-saytimiz: **Zokirjon.com***

***Hujjat Word variantda beriladi.***

***Zokirjon Admin bilan***

***90-530-00-68 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz yoki nza4567 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.***

***Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi***

**Tarix fanidan 9-sinf o‘quvchilarga 34 soatli to‘garakni to‘liq holda olish uchun telegramdan yozing.**




**Narxi: 15 ming so‘m**

**Telegram kanalimiz:**

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

**To‘lov uchun: UZCARD \*880\*9860230104973329\*summa#**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



**DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To‘liq holda olganingizdan so‘ng:

Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet orqali veb-saytlarga joylamang.

Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA**

**HIYONAT QILMANG.**